



THE NEED TO RESEARCH SOCIAL MEMORY IN THE CONTEXT OF GLOBALIZATION

Qodirjon Mahkamov

doctor of philosophy in (PhD) sociological sciences, acting professor
Namangan State University
Uzbekistan, Namangan

ABOUT ARTICLE

Key words: history, social memory, historical thinking, memory, globalization, values, education, upbringing, social memory.

Received: 16.11.24

Accepted: 18.11.24

Published: 20.11.24

Abstract: The article reveals the role of the modern global world in the formation and strengthening of social memory and the need to study the problem of social memory in the international community. At the same time, historical thinking, historical consciousness of people, and ongoing historical processes were analyzed in the development of national social memory.

GLOBALASHUV SHAROITIDA IJTIMOYIY XOTIRANING TADQIQ ETISH ZARURIYATI

Qodirjon Mahkamov

Sotsiologiya fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), v.b.professor
Namangan davlat universiteti
O'zbekiston, Namangan

MAQOLA HAQIDA

Kalit so'zlar: tarix, ijtimoiy xotira, tarixiy tafakkur, xotira, globalashuv, qadriyat, ta'lim, tarbiya, ijtimoiy xotira.

Annotatsiya: Maqolada bugungi global dunyoning ijtimoiy xotirani shakllantirish va mustahkamlashdagi roli hamda halqaro hamjamiyatda ijtimoiy xotira muammosining tadqiq etib borish zaruriyati ochib berilgan. Shu bilan birga milliy ijtimoiy xotiraning rivojlantirishda kishilar tarixiy tafakkuri, tarixiy ongi, va sodir bo'layotgan tarixiy jarayonlar tahlil qilingan

НЕОБХОДИМОСТЬ ИССЛЕДОВАНИЯ СОЦИАЛЬНОЙ ПАМЯТИ В КОНТЕКСТЕ ГЛОБАЛИЗАЦИИ

Кодиржон Махкамов

доктор философии (PhD) по социологическим наукам, профессор и.о.

Наманганский государственный университет

Узбекистан, Наманган

О СТАТЬЕ

Ключевые слова: история, социальная память, историческое мышление, память, глобализация, ценности, образование, воспитание, социальная память.

Аннотация: В статье раскрывается роль современного глобального мира в формировании и укреплении социальной памяти и необходимость исследования проблемы социальной памяти в международном сообществе. При этом в развитии национальной социальной памяти анализировались историческое мышление, историческое сознание людей, происходящие исторические процессы.

KIRISH

Jahonda sodir bo'layotgan milliy-ma'naviy o'zgarishlar xalqlarni milliy o'zligini saqlab qolish hamda milliy ijtimoiy xotirani rivojlantirish orqali avlodlar davomiyligini ta'minlash muammolarini tadqiq etish masalalari tobora dolzarblashib bormoqda. Turli mintaqalarni qamrab olgan globallashuv jarayonlari xalqlarning o'z tarixiy ildizlariga tayanish, milliy va tarixiy o'zligini saqlab qolish tendensiyalarini rivojlantirib xalqaro maydonda sodir bo'layotgan turli jarayonlarni boshqarishda axborot texnologiyalari va ommaviy kommunikatsiya vositalari kishilar milliy ijtimoiy xotirasini o'zgartirish, ularning tarixiy ongi va xotirasini sohtalashtirishga bo'lgan harakatlar avj olmoqda.

ASOSIY QISM

Dunyoda milliy ijtimoiy xotira fenomenini ilmiy-nazariy hamda amaliy tadqiqotlar asosida o'rganish, uni rivojlantirib borishga bo'lgan ehtiyoj ortib bormoqda. Milliy mansublik tuyg'usini rivojlantirishda asos vazifasini bajaruvchi milliy ijtimoiy xotiraning ustuvor ahamiyatini aniqlash (University of Brighton), kishilar tarixiy tafakkurini yangi innovatsion texnologiyalar asosida rivojlantirish usullarini ishlab chiqish, ijtimoiy xotira taraqqiyotini belgilaydigan ijtimoiy-madaniy jihatlar (tarixiy narrativlik, madaniy meros)ni tadqiq etish, turli davr tuzumlari sharoitida inson huquq va erkinliklari masalasi va uning tarixiy xotirada namoyon bo'lishi (Estonian Institute of Historical Memory), millat mavqei va millatning eng yangi tarixini to'g'risidagi yangi materiallarni jamoatchilikka yetkazish (Instytut Pamięci Narodowej), milliy ijtimoiy va jamoaviy xotirani rivojlantirishda milliy tarix, me'moriy obidalarning o'rnini ochib berish kabi bir qator innovatsion yondashuvlarni ishlab chiqishga qaratilgan ilmiy tadqiqotlar olib borilmoqda.

Jamiyatning yangi rivojlanish bosqichida milliy tarixga bo'lgan ijtimoiy munosabat so'ngi yillarda tubdan o'zgardi. Mamlakatning ijtimoiy-ma'naviy rivojlanishini ta'minlash, milliy taraqqiyot belgilab beruvchi modellarni ishlab chiqish, barkamol avlodda "Vatan xissi"ni yuksaltirish, kishilar ijtimoiy xotirasida "tarixiy xotira", "tarixiy dunyoqarash", "tarixiy madaniyat", "tarixiy tafakkur" tushunchalarini mustahkamlash, yoshlarda tarixiy merosga bo'lgan ijobiy munosabatni rivojlantirishga qaratilgan islohotlar amalga oshirilmoqda. O'zbekistonning eng yangi tarixini o'rganish borasidagi ishlar samaradorligini oshirishga e'tibor kuchayib borayotganligi, buyuk mutafakkirlar ilmiy ijodini tadqiq etuvchi xalqaro ilmiy-tadqiqot markazlarini tuzish to'g'risidagi qarorlar, shuningdek, har tomonlama yetuk, vatanparvar avlodni tarbiyalash maqsadiga qaratilgandir. "Xususan, milliy o'zligimizni anglash, Vatanimizning qadimiy va boy tarixini o'rganish, bu borada ilmiy-tadqiqot ishlarini kuchaytirish, gumanitar soha olimlari faoliyatini har tomonlama qo'llab-quvvatlash"[1] muhim ahamiyat kasb etmoqda. Kishilarda milliy ijtimoiy xotirani rivojlantirish, uning ijtimoiy-ma'naviy hayotdagi va milliy o'zlikni saqlab qolishdagi rolini tadqiq etish nazariy va amaliy ahamiyatga molikdir.

Mamlakatimizda milliy tariximizni tiklash va o'rganish, uni xalq ongiga singdirish borasidagi amalga oshirilayotgan islohotlardan ko'zlangan asosiy maqsad yoshlarni vatanparvarlik ruhida tarbiyalash, fuqarolarda ijtimoiy mas'uliyat, fuqarolik burchi va milliy g'urur tuyg'usini tarkib toptirishdan iboratdir.

Milliy ijtimoiy xotira jamiyatning ijtimoiy rivojlanishini ta'minlovchi hodisa sifatida tarixda har bir davlatning ijtimoiy-siyosiy hamda ma'naviy hayotida muhim o'rin tutgan. Ijtimoiy xotira o'zida tarixiy xotirani mujassam etib jamiyat vakillarining milliy o'ziga xosligini belgilab beruvchi aksiologik kuch hisoblangan. Ming yillar davomida yaratilib avlodlar tomonidan madh etib kelingan afsona va rivoyatlar, ertak va dostonlar xalqlar, millatlar milliy xotirasining rivojlantiruvchi hamda har bir avlod uchun ibrat namunasi bo'lib kelgan. Qadimgi yunon mutafakkirlari Platon, Aristotel asarlari hamda ilk o'rta asrlar rim olimi Avreliy Avgustin [2] tarixning mazmuni, xotirani muammosini, diniy omillar va vaqt bilan bog'liq jihatlarini tadqiq etgan bo'lsa, tarixning mazmun-mohiyatida erkinlik tuyg'usini Ibn Xaldun [3] tomonidan o'rganilgan, xotirani ilmiy bilish nuqtai-nazaridan tadqiq etish Tomas Gobbs va Georg Gegellar ilmiy ishlarida ko'rinadi, tarixiy rivojlanish bosqichlarida jamiyatning ijtimoiy hayoti Karl Yaspers [4] asarlarida, ijtimoiy tizimlarning mavjudlik sharti jamiyatning rivojlanish va o'zgarish qonuniyatlariga ta'siri Ogyust Kont [5,] tadqiqotlarida ko'rinadi.

Milliy ijtimoiy xotirani nazariy jihatdan tadqiq etish uni o'rganish, jamiyat ijtimoiy rivojlanishida tutgan o'rni, kundaliy hayotdagi sotsial ahamiyati, birlashtiruvchilik, aloqa bog'lovchilik, nazorat qiluvchilik funksiyalarini aniqlashga doir ilmiy-amaliy tadqiqotlar jahon ilm-fanining turli vakillari tomonidan amalga oshirilgan va bu tadqiqotlar davom etmoqda.

Ayniqsa, shaxs milliy ijtimoiy xotirasini shakllantiruvchi tarixiy tafakkur va tarixiy vaqt tajribasiga doir metodologik tarix konsepsiyasini yaratgan nemis tarixchisi va nazariyotchisi R. Kozellek,[6] milliy tarixning shakllanishi, tarixiy bilim va anglash masalalari va tafakkurning paydo bo'lishini o'rgangan britaniyalik faylasuf R.Kollingvud [7], XX asrda shaxs tafakkuri shakllarining rivojlanishi va tarixiy tafakkur turlari bilan bog'liq jarayonlar metodologiyasini o'rgangan fransuz faylasufi Fransua Artog [8]larning tadqiqotlari ahamiyatga molikdir.

Jamoaviy va ijtimoiy xotiraga madaniy va sotsiologik yondashuvlar Franklin Rudolf Ankersmit, Per Nora, Xeyden Uayta tadqiqotlarida ko'rish mumkin. Shu bilan birga tarixiy xotira, tarixiy ong va tarixiy madaniyat tiplari nazariyasini yaratgan nemis olimi Yorn Ryuzen [9], milliy xotirada madaniy mansublik tuyg'usini shakllanishi, yangi davr ta'sirida avlodning tarixiy ongidagi o'zgarishlar transformatsiyasini tadqiq etgan fransuz olimi Raymon Aron [10] ning xizmatlari ilmiy-amaliy qimmatga egadir.

Inson sub'ektiv manzarasi muammosi bilan shug'ullangan deyarli barcha tadqiqotchilar uning tarixiy voqealarga bog'liqligini tan olishadi. Masalan, ayrim tadqiqotchilar ijtimoiy xotiraning jamiyat va shaxs mavjudligining asosiy shakli sifatida inson ongining kelajakka yo'naltirilgan individual va ijtimoiy-madaniy xotiraning muayyan qatlamlarini doimiy ravishda aktallashtirishni belgilovchi muhim omil deb hisoblashsa. I. A. Tregubenko[11] zamonaviy jamiyatda tarixni idrok etish, uning roli va inson hayotiga ijtimoiy ta'siri muammolariga qaratilgan ilmiy tadqiqot ishlarini olib borgan, I.Yu Salomina[12] ijtimoiy xotiraning madaniyatning muhim bir elementi sifatida qadriyatli xususiyatlari va funksiyalari ochib berilgan. Shu bilan birga Ijtimoiy xotira muammosi mavzmun va mohiyatining semantikasi, uning kognitiv, praseologik jihatlar G.A.Bakieva[13] tomonidan o'rganilgan.

Milliy ijtimoiy xotirani rivojlanishida ijtimoiy-madaniy sharoitlarning o'zgarishi, avlodlar o'rtasidagi qadriyat "bo'shliqlari", tarixiy o'tmishni soxtalashtirish, uning avtobiografik xotira doirasida individual tarixiy tajriba tahlili (R.Braun, J.Kulik, M.Linton), sotsiologiyada jamoaviy xotira bilan bog'liq holda o'rgangan (M.Xalbvaks, P.Nora) olimlar, ijtimoiy mediada tarixiy xotiraning tutgan o'rni S. V. Tixonova va D.S. Artamonov [14]lar ishlarida ko'rish mumkin.

Milliy ijtimoiy xotiraning asosiy komponenti bo'lmish tarixiy xotiraning shakllanish mexanizmlari o'rganish, tahlil etish orqali xotira maskanlarini aniqlab borish, "o'tmish timsoli"ni yaratishdagi rolini ochib berish O. O. Dmitrievda,[15] kishilar tarixiy xotirasini rivojlantirishda tarixiy vaqtning ahamiyati haqida P. A. Zaklinskiy ilmiy tadqiqotlar olib borgan. Yoshlar tarixiy xotirasini shakllanishida muzeylarning o'mi O.A. Bojchenko asarlarida keltirib o'tilgan. Madaniy o'ziga xoslikni saqlab qolish hamda global ijtimoiy-madaniy makonga integratsiyalashish jarayonlarida tarixiy xotiraning zamonaviy madaniyatning tartibga solishdagi vazifalari [16] ga doir ilmiy tadqiqotlarda, inson hayotining tarixiy kontekstda mazmuniga doir tadqiqotlarda zamonaviy

jamiyatning dolzarb muammolarini inson o'z hayot yo'li orqali tushunishi, tarixni idrok etishning hayot davomiyligi bilan tasvirlash (I. A. Tregubenko, L. R. Karsavin) [17] bilan bog'liq tadqiqot ishlari amalga oshirilgan.

Ijtimoiy xotira, o'zlikni anglash, tarixiy xotira va ong muammolari M. Shirmanova, A. Leopa kabi tadqiqotchilar dissertatsiyalarida falsafiy nuqtai nazardan, o'rganilgan.

Bugungi global jamiyatlararo ziddiyatlar kuchaygan davrda xalqlar milliy tarixga bo'lgan noxolis munosabat va fitna nazariyalari kishilarda tarixiy xotira o'zgarishiga olib kelmoqda, ularda sohta ijtimoiy xotira shakllantirilmoqda. Bu esa mamlakat ijtimoiy-gumanitar ta'lim tizimida muhim o'rin egallab ularni o'qitish va zamok nuqtai-nazaridan takomillashtirib borish vazifasini yuzaga keltirmoqda. Bu bir tomondan amaliy, ya'ni ta'lim tizimi, ma'naviy-ma'rifiy ishlar sifati va samaradorligini oshirish orqali bo'lsa, ikkinchi tomondan, nazariy, ya'ni o'qitilayotgan fanlarning mazmunini talab darajasiga ko'tarish, uni yangi dalillar va ilmiy xulosalar bilan boyitish uchun tadqiqotlar olib borish orqali ro'yobga chiqarilmoqda.

Mamlakatimizda "qadriyat", "tarixiy xotira", "milliy o'zlikni anglash", "vatanparvarlik" tushunchalari Q. Nazarov, S. Otamuratov, G. Nikitenko, D. G'ulomova, M. Mamajanova, R. Raxmanov, F. Fayziev kabi bir qator olimlar tomonidan tadqiq etilgan. Shuningdek, Z. Ch. Valiev, N. Jo'raev, S. A. Xaydarov, R. Zamilova kabi bir qator tarixchi, faylasuf va sotsiolog olimlar hamda ilmiy izlanuvchilar ishlarida "tarixiy ong", "tarixiy tafakkur", "tarixiy xotira", "milliy o'zlikni anglash" tushunchalarining tarixiy madaniyat, xotira, tarixiy tafakkur shakllarining shakllanish jarayonlari va tendensiyalari, undagi tarixiy bilimning o'рни va ahamiyati, milliy o'zlikni anglashdagi vazifalari kabi xususiyatlari falsafiy, tarixiy hamda pedagogik jihatdan tadqiq etilgan.

Milliy ijtimoiy xotiraning madaniyat nuqtai-nazaridan, millatlararo munosabatlarda jamoatchilik fikri, boshqaruvning tarixiy jihatlari, keksalarni ijtimoiy himoya qilishda an'ana va qadriyatlarni o'рни, axborotlashgan jamiyatda ijtimoiy rivojlanish kabi jihatlari M. Bekmurodov, A. A. Umarov, M. Ganieva, R. A. Ubaydullaeva, A. Xolbekov, Sh. Sodiqova, T. Matibaev, A. Seitov, O. Abduazimov, B. Farfiev kabi sotsiolog olimlar ijtimoiy xotirani sotsial omillarini jamiyatga ta'siri xususida izlanishlar olib borishgan.

XULOSA

Ijtimoiy xotira bo'yicha ilmiy tadqiqotlardan shuni ko'rish mumkinki, turli davrlarda ushbu mavzu turlicha tadqiqot obyekti sifatida tadqiq etib kelingan boisi, jamiyatning real davomiyligi shunga bog'liq bo'lgan. Shu sababdan bugungi globallashtirish davrida jamiyatda ijtimoiy xotirani mustahkamlash dolzarb masalalardan biri hisoblanadi.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Ўзбекистон Республикаси Президенти Шавкат Мирзиёевнинг Олий Мажлисга Мурожатномаси. 28.12.2018. <https://president.uz/uz/lists/view/2228>
2. Августин Блаженный. Теологические трактаты: Духовно-просветительское издание. Москва: Алетейя, 2022. 756 с.
3. А.А. Игнатенко. Ибн-Хальдун. Москва: Мысль, 1980. 160 с.
4. Ясперс К. Смысл и назначение истории. – Москва: Политиздат, 1991. – 527 с.
5. Огюст Конт. Общий обзор позитивизма Москва: Либроком, 2012. 296 с.
6. Райнхарт Козеллек. *Vergangene Zukunft: Zur Semantik geschichtlicher Zeiten.* – Frankfurt a. Myunxen: Schurkamp, 1995. – 389 S.
7. Р. Коллингвуд. Идея Истории автобиография. Москва: Наука, 1980. 485 с.
8. Француа Артог. Типы исторического мышления: презентизм и формы восприятия времени. Отечественные записки. №5. (20). 2004. –С.13-20.
9. Йорн Рюзен. Кризис, травма и идентичность. “Цеп времен”: проблемы исторического сознания. Москва: Иви Ран, 2005. 256 с.
10. Арон Р. История XX века. Антология. Москва: Ладомир, 2007. 1105 с.
11. Трегубенко И. А. Историческая память в контексте субъективной картины жизненного пути личности. Дисс.автореферат кандидата психологических наук. Санкт-Петербург. 2013.
12. Соломина И.Ю. Социальная память: структура и феномены. Дисс.. автореферат кандидата философских наук Самара. 2005.
13. Г.А. Бакиева Философский анализ феномена социальной памяти. Диссертации доктор философских наук. Санкт-Петербург, 2001. 339 с.
14. Tikhonova S. V., Artamonov D. S. Историческая память в социальных медиа. Москва: Aletheya, 2021. 264 с.
15. Дмитриева О. О. “Историческая память и механизмы ее формирования: анализ историографических концепций в отечественной науке” Вестник Челябинского государственного университета. 2015. № 6 (361). История. Вып. 63. С. 132-137.
16. Синицина Н.А. Историческая память как регулятив современной культуры: социологический анализ. диссертации на соискание ученой степени кандидата социологических наук. Майкоп. 2008.
17. Трегубенко Илья Александрович. Историческая память в контексте субъективной картины жизненного пути личности. Автореферат диссертации на соискание ученой степени кандидата психологических наук. Санкт-Петербург, 2013.